

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4

No 7




- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil**



**IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT**

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 348 sahifa.*

*E'lton qilishga 2024-yil 25-iyulda ruxsat etildi.*

**Tahrir hay'ati:**

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxridinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvarkhanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhad**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## **Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

## **Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali  
O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro‘yxatdan  
o’tkazilgan.

**Muassis:** “Ma’rifat-print-media” MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O’zR  
Tabiat resurslari vazirligi, O’zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK  
departamenti.



# MUNDARIJA

Avtosanoat korxonalari marketing strategiyasini takomillashtirish yo'llari .....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zayniddinova Umida Djalolovna	
Mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalar omilidan foydalanish istiqbollari .....	26
Izbosarov Boburjon Baxriddinovich, Abdurasulov Ravshanbek Xotam o'g'li	
Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institutsional tahlili .....	32
Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li	
Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili .....	37
Turgunov Odilbek Maripovich	
Etnografik turizmni tashkil etishning xorij tajribasi .....	41
I. Axmedov	
Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagи rolini tahlil qilishning zamонавиy yondashuvlari .....	46
Xusanov Murodjon Sunnatullayevich	
Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixi .....	54
Maksudov Avazbek Ulug'bek o'g'li	
Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirish .....	59
Ubaydullaev G'ayrat Zuvaytovich	
O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning o'rni .....	65
Bayanova Mavlyuda Djurayevna	
The Effect of Students' Financial Status on Academic Performance in Uzbekistan .....	70
Alimov Damirjon Odilovich	
Qoraqlapog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining o'rni .....	76
Jusupova Anjim Tansiqaevna	
Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce .....	82
Sohibjamol Abirkulova	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lif maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashdainnovatsion usullardan foydalanish .....	87
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va audit bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari .....	92
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi budgetining shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi .....	97
Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna Mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishida energosamaradorlikning roli .....	104
J. J. Yaxshilikov	
Сравнительный анализ состояния сферу услуг в регионах Андижанской области .....	109
Мусабоев Рустам Алихонович	
Hududlarda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ishlab chiqarish sanoatining o'rni (Qashqadaryo viloyati misolida) .....	114
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Baxronov Baxriddin Najmiddinovich	
Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirish yo'llari .....	118
Ermatov Utkirbek Baxodirjonovich	



Развитие цифровой экономики в Узбекистане, ее плюсы и минусы .....	122
Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи, Мамбетова Мадина Зохид кизи, Алижонова Малика Алижон кизи, Хакимова Нигора Бахтиёрова	
Investment Management is an Important Factor of Economic Development.....	127
Yuldasheva G. A., Ziyayev Dilshodjon	
O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sanoatining rivojlanish istiqbollari.....	130
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish.....	136
Tojirov Yunus Alamovich	
Operatsion faoliyatni boshqarishda strategiya tushunchasiga bo'lgan yondashuvlarning shakllanishi.....	143
Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich	
Ta'lim jarayoniga raqamlı texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash.....	148
Xusniddinov Yorqinjon Muxiddin o'g'li	
Budget tashkilotlarida pul mablag'lari nazorat qilishni rivojlantirish yo'llari.....	152
Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Djalilova Malika Shuxratovna	
QQS ma'murchiligining yevropa tajribasi.....	157
Bisenbayev Sharyar Kuanishbayevich	
O'zbekistonda soliq yukiga ta'sir etuvchi omillar tahlili .....	162
Nasimov Ravshanjon Azimovich	



# O'ZBEKISTONDA SOLIQ YUKIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

Nasimov Ravshanjon Azimovich

PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Maqolada soliq yuki ko'rsatkichining ahamiyati, O'zbekistonda iqtisodiy xatti-harakatlar va natijalarni shakl-lantirishda soliq siyosatining ahamiyatini ko'rsatadi. Ular yuqori soliq stavkalari, murakkab qoidalar va past soliq axloqi tadbirkorlik faoliigi va rivojlanishiga jiddiy to'siq bo'lishi jihatdan o'rganilgan hamda ilmiy xulosa-takliflar shakllantirilib, soliq yukini hisoblash yo'nalishlari nazarda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq stavkasi, soliq hisoboti, soliq yuki, soliq stavkalari, budgeti xarajatlari, resurs soliqlari, er solig'i, mahalliy soliqlari, soliq, budjet, soliq imtiyozlari.

**Abstract:** The article shows the importance of the tax burden indicator, the importance of tax policy in the formation of economic behavior and results in Uzbekistan. They were studied from the point of view of high tax rates, complex rules and low tax ethics being a serious obstacle to business activity and development, and scientific conclusions and suggestions were formulated and directions for calculating the tax burden were provided.

**Key words:** tax rate, tax reporting, tax burden, tax rates, budget expenditures, resource taxes, land tax, local taxes, tax, budget, tax credits.

**Аннотация:** В статье показано значение показателя налоговой нагрузки, значение налоговой политики в формировании экономического поведения и результатов в Узбекистане. Они изучены с точки зрения высоких налоговых ставок, сложных правил и низкой налоговой этики, являющихся серьезным препятствием для деятельности и развития бизнеса, сформулированы научные выводы и предложения, а также даны направления по расчету налогового бремени.

**Ключевые слова:** слова: налоговая ставка, налоговая отчетность, налоговое бремя, налоговые ставки, расходы бюджета, ресурсные налоги, земельный налог, местные налоги, налог, бюджет, налоговые льготы.

## KIRISH

Jahon mamlakatlari moliya-soliq tizimida azaliy muammolardan biri sifatida soliq yukini optimal taqsimlash va shu orgali iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan uzoq yillarga mo'ljallangan moliyaviy strategiyalar va taktilkalgara keng e'tibor berib kelinmoqda. Xalqaro valyuta fondining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda jahon mamlakatlari soliq yukini baholash, tahlil qilish va aniqlashning bir qator tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan usullarni qo'llash asosida mamlakatlarning soliq siyosatining samaradorligiga baho berilmoqda, jahon hamjamiyati uchun soliq yukining o'tacha darajasi (o'tiz besh foizdan oshmaslik)da mavjud bishlighi jahon mamlakatlarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning bir omili sifatida qarab kelinmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda iqtisodiy siyosatining eng muhim elementlaridan biri – soliq siyosatini yanada liberallashtirish, soliqqa tortish tartibini soddalashtirish, soliq yukini pasaytirish, xo'jalik subyektlarining huquq va erkinliklarini himoya qilishni amalga oshirish hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARXI

T.Kulikova (2004) o'zning ilmiy tadqiqotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda muallif soliq yuki masalasini soliq boshqaruvi tizimi haqidagi g'oyalari bilan boyitganligi, xo'jalik yurituvchi subyektlarda soliqni rejashtirish masalasini ular tomonidan soliq yukini e'tiborga olgan holda amalga oshirishning ilmiy asoslari, soliq yukini baholashga oid ilmiy yondashuvlarini tahlili, soliq to'lovchi tadbirkorlik subyektlarining soliq yukini baholashning ayrim uslubiy asoslarini, tadbirkorlik subyektlarining soliq yukini rejashtirishning deterministik simulyatsiya modellarini ishlab chiqqan.

A.Gofan (2008) soliq yuki muammosini "soliqlarni optimallashtirish" masalasi bilan birga tadmiq qilgan. Muallifning fikricha, "soliq yukining past darajasi muvozanatini ta'minlash va soliq tavakkalchiliklarini maqbul chegaralarda saqlashni o'z ichiga olgan chora-tadbirlar majmuuni ishlab chiqish, to'langan soliqlarni ratsionalizatsiya qilish va joriy qonunchilik doirasida soliq risklarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar davlatning muhim masalasi sifatida qo'yilishi kerak".

A.Usoveskiy (2003) tadqiqotlarida korxonalarda soliq yuki masalasiga ham alohida urg'u berib, "korxona-ning soliq yuki deganda xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliq majburiyatları mutlaq qiyamatining yagona



hisob-kitob davri uchun qo'shilgan qiymatga nisbati tushuniladi va bunday yondashuv makro va mikro darajada soliq yukini aniqlash imkonini berishligini, soliq yuki ishlab chiqarishning moddiy intensivligi, mahsulot bahosidagi soliqlar miqdori, xodimlar soni kabi omillar bilan buzilmaydi".

D.Lazutina (2005) esa, o'zining "Soliq yuki va uni hisoblash usullari", deb nomlangan dissertatsion tadqiqotlarida soliq yuki masalalarini o'rghanish doirasida muallif "soliq yuki" va "soliq og'irligi" tushunchalarining ta'riflarini farqlashni taklif qiladi, tadbirkor uchun maqbul soliqqa tortish tizimini tanlash maqsadida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning soliq yukini hisoblash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan, milliy iqtisodiyotda real soliq yukini aniqlash uchun jismoniy shaxslarning soliq yukini hisoblashning mualliflik metodologiyasini taklif qiladi, jismoniy shaxsning soliq yuki hajmiga ta'sir etuvchi omillarni baholash usullarini keltirib o'tadi.

A.N.Rogojin (2012) esa, soliq menejmenti nuqtayi nazaridan fiskal yuk va soliq yukini farqlash lozimligini ta'kidlaydi va soliq yukini fiskal yukning tarkibiy qismi sifatida tushunish lozim, deb hisoblaydi. Uning fikricha, "fiskal yuk mamlakat budget tizimi budgetlariga (shu jumladan, budget davlat ijtimoiy budgetdan tashqari jamg'armalariga) hisoblangan majburiy to'lovlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini ko'rsatadi va u quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: soliq tushumlari, sug'urta mukofotlari, bojxona to'lovlari va yig'imlari, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlari, litsenziya to'lovlari".

S.Sultonova (2022) o'z tadqiqotlarida soliq yukini aniqlash uslubiyotiga to'xtalib, respublikamiz temir yo'l tarmog'idagi korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilishda soliqlarning xizmat ko'rsatish tannarxiga ta'siri orqali ularning zimmasidagi soliq yukining miqdorini ilmiy jihatdan tahlil qilgan.

S.Chepel esa, soliq yuki masalasiga oid ilmiy tadqiqotlarida soliq yukini soliq undirmalarining asosiy turlari bo'yicha bir darajaga pasayishi oqibatlari va ularning o'sish va eksport indikatorlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sirini ekonometrik tadqiqot usuli asosida yondashadi va ta'kidlaydiki, "soliq tizimini barcha variantlarida soliq yukini tenglashtirish, soliq ma'muriyatini takomillashtirish va soliqlar yig'imi darajasini oshirish bo'yicha chorallarga bir vaqtda ustuvorlik berilmog'i lozim. Shunday holatda ikkita vazifani bir vaqtda echish mumkin, ya'ni, ularning biri iqtisodiy barqaror o'sishning zaruriy sharti hisoblangan soliq yukini pasaytirish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi esa, keyingi yillarda erishilgan makroiqtisodiy barqarorlikka putur etkazmaydigan budgetni real xarajatlari o'sishi bilan bog'liqdir".

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanimlib, soliq yukining tadbirkorlik subyektlariga ta'siriga doir ma'lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI


Ta'kidlash lozimki, soliq yuki bir qarashda oddiy kategoriya bo'lib anglansada, biroq, yuqorida uni aniqlash va baholash bo'yicha amalga oshirgan ilmiy tahlillarimiz ko'rsatganidek, o'ziga xos murakkab iqtisodiy jarayon hisoblanadi. Mohiyatan olib qaralganda soliq yukini davlat belgilaydi, biroq, bu fikr ham bir tomonlama xususiyatga ega. Sivilizatsiyali jamiyatda aslida soliq yukining miqdori va uning darajasiga ta'sir etuvchi holat bu jamiyatda soliqlarni joriy etish muhim sanaladiki, bu aksariyat davlatlardagi kabi xalq hokimiyati bo'lgan parlamentarizm yo'li bilan amalga oshiriladi. Demak, davlat hokimiyatining vakillik organlari tomonidan soliqqa tortishning adolatlilik tamoyillariga asoslangan holda soliqlar va ularning miqdori, stavkasi va boshqa shu kabi elementlari belgilab berilsagina, soliq yukining darjasini mutadillikka yaqinlashadi, bundan tashqari soliqlarni undirish bilan shug'ullanuvchi yoki davlat mablag'larini taqsimlovchi vakolatli organlarining soliqlar hajmini oshirishga qaratilgan moliyaviy talablari (takliflari)ning qondirilishi esa, soliq yukining miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Bundan ko'rindaniki, jamiyatda soliq yukining miqdorini belgilash va uning darajasiga ta'sir etishda ustqurma davlat hokimiyatining shakllari doirasidagi moliya-soliq siyosatining asosi muhim sanaladi.

Qayd etilganlar umumiylar tartibda soliq yukining belgilanishining muhim moliyaviy-iqtisodiy asosi hisoblanadi. Yuqoridaq 1-rasmida keltirib o'tilayotganidek, garchi soliq yuki darjasini vakolatli organlar tomonidan soliqlarning adolatlilik tamoyili asosida belgilansada, milliy iqtisodiyotning rivojlanganlik darjasini ham uning miqdoriga ta'sir qiluvchi muhim omil sifatida doimo mavjud bo'ladi. Bunda ham davlatning moliyaviy-soliq instrumentlaridan foydalanish darajasiga ham bog'liq bo'ladi.

Jamiyat hayotida iqtisodiy tanazzul vaqtida qaysi turdag'i soliq siyosatini qo'llash, ya'ni, progressiv, rag'batlantiruvchi, gibrild turlarini qo'llashni tanlashga ham bog'liq bo'ladi. Buni 1930-yillarda AQShdagi buyuk iqtisodiy tanazzul vaqtida J.Keyns nazariyasiga asoslangan progressiv soliqqa tortish nazariyasimi yoki Osiyo davlatlarida keyingi yillarda ko'p qo'llanilayotgan ofshor zonalarni rag'batlantirish orqali milliy o'sishni ta'minlashga qaratilgan nazariyalarni qo'llash yoki iqtisodiyotdagi makroiqtisodiy holatning umumiy yo'nalishiga qarab tarti-




blovchi-rag'batlantiruvchi-muvofiqlashtiruvchi triadasiga asoslangan soliqqa tortish amaliyotini qo'llash asosida makro va mikro darajadagi soliq yuki darajasiga ta'sir etib borish maqbul variantlarni aniqlab borish davlatning moliyaviy siyosatida o'ta muhim masala hisoblanadi(1-rasm).



**1-rasm. Soliq yuki darajasiga ta'sir etuvchi omillar<sup>1</sup>**

Ta'kidlash lozimki, ham nazariy, ham amaliy jihatdan olganda soliq yuki darajasiga omillarni guruhlaganda ular juda ko'p bo'lishi mumkin, ammo moliyaviy-soliq instrumentlарining bevosita ta'siri nuqtayi nazaridan ularning eng muhim sifatida quydagilarni alohida ajratib ko'satish mumkin (2-rasm).



**2-rasm. Soliq yukiga ta'sir etuvchi moliyaviy-soliq instrumentlari<sup>2</sup>**

1 Muallif tomonidan tuzilgan.

2 Muallif tomonidan tuzilgan.



Yuqorida keltirilgan 2-rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, soliq yukiga bevosita ta'sir etuvchi moliyaviy-soliq instrumentlari sifatida soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliq preferensiyalari, soliq obyekti va soliq bazasi kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillarning ta'sirini belgilash esa ikki xil tartibda amalga oshiriladi. Ya'ni, birinchi uchala omillar: soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliq preferensiyalari davlatning moliyaviy-soliq siyosati orqali davlat tomonidan belgilanadi.

Shuningdek, soliq obyekti, soliq bazasi va narx omili bu asosan bozor qoidalariha hamda soliq to'lovchining iqtisodiy faoliyatiga bog'liq holda soliq yukiga ta'sir qiladi. Bularning orasida ham eng ko'p va ta'sir doirasi kengroq bo'lgan soliq stavkalari soliq yukiga tez ta'sir ko'rsatadi, bu holatni nazariy jihatdan tadqiqot ishimizning birinchi bobida Laffer egri chizig'i orqali ham qisman tushuntirib bergan edik. Soliq obyektining soliqqa tortiladigan qismi-soliq bazasini aniqlash bu – soliq to'lovchining (soliq turlari bo'yicha) yuzaga kelgan soliq majburiyatlari hajmini ifodalaydi va budjetga jalb qilinadigan soliq summasining bazasini ko'rsatadi. Ammo shakllantirilgan soliq bazasining qancha qismini davlat manfaatlariga (budjetga) olish masalasini esa soliq stavkalarisiz hal etib bo'lmaydi. Demak, soliq stavkalari soliq bazasini soliq to'lovchi va davlat manfaatlar o'rtasida taqsimlovchi vosita-ko'rsatkich hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikka o'rnatilgan soliq stavkasi o'ttacha darajadan farq qilishi mumkin. Soliq bazasi qancha kichik bo'lsa, o'ttacha soliq stavkasi shuncha katta bo'ladi, aksincha soliq bazasi qanchalik katta bo'lsa, o'ttacha soliq stavkasi past bo'ladi. Odatda soliq stavkasining soliq bazasi va soliq tushumlariga va shu orqali soliq to'lovchilarga ta'sirini aniqlashda maksimal soliq stavkalari ham aniqlanadi.

Soliq stavkasining optimal miqdorini belgilash esa soliq siyosatidagi eng murakkab jarayon hisoblanadi, chunki, soliq yukiga ta'siri nuqtayi nazaridan soliq stavkasi progressiv soliqqa tortishni ifodalaydi. Vaholanki, davlat soliq stavkalarni oshirish orqali bir tomonidan moliyaviy resurslarni davlat budjeti va boshqa fondlarga ko'proq jalb qilishni nazarda tutsa, boshqa tomonidan ayrim turdag'i soliq turlari bo'yicha soliq stavkalarni oshirish orqali iqtisodiyotni soliqlar vositasida qulay tartiblashni amalga oshiradi, shuningdek, soliq stavkalarni oshirish orqali ayrim turdag'i, masalan, er osti boyliklaridan samarali foydalanishga majburlovchi instrument sifatida foydalanadi. O'z navbatida davlat soliq stavkalari orqali soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini optimallashtirish, ya'ni pasaytirish orqali ularni rag'batlantirishi mumkin.

Soliq yuki va soliq stavkasi o'rtasidagi bog'liqlikni davlatning soliq siyosatidagi yondashuvni ilmiy tahlil qilish maqsadida hamda fikrimizning tasdig'i sifatida 2022–2023-yillarda soliq siyosatidagi soliq stavkalarining o'zgartirilishi natijasida soliq yukining o'ttacha miqdorini saqlanish holati va ta'sirini ko'rib chiqamiz. 2022–2023-yildagi soliq-budget siyosatida soliq stavkalarining o'zgarishiga e'tibor beradigan bo'lsak quyidagi holatni ko'rish mumkin:

birinchidan, 2022-yil 1-noyabrdan boshlab tovar (xizmat)larni eksportga realizatsiya qilishdan olingan foydaga, eksportdan olingan daromadning jami daromaddagi ulushidan qat'iy nazar, 0 foiz miqdoridagi soliq stavkasi bo'yicha soliq solinishi orqali eksportni rag'batlantirish asnosida eksportchi korxonalar zimmasidagi soliq yuki pasaytirildi;

ikkinchidan, basharti: 2022-yil 1-sentabrdan so'ng ilk marotaba soliqni to'lashga o'tgan aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar keyingi yildan boshlab bir soliq davri mobaynida, basharti pasaytirilgan soliq stavkasi qo'llaniladigan soliq davrida jami daromad o'n milliard so'mdan oshmasa;

2022-yil 1-sentabrdan keyin jami daromadi soliq davri mobaynida ilk marta o'n milliard so'mdan oshgan soliq to'lovchilar – joriy soliq davri va keyingi soliq davri mobaynida, basharti pasaytirilgan soliq stavkasi qo'llaniladigan soliq davrlarida jami daromad yuz milliard so'mdan oshmasa belgilangan soliq stavkasini 50 foizga pasaytirishga haqli degan normaning kiritilishi aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukining pasayishiga ta'sir qilgan;

uchinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha 15 foizlik qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 12 foizga tushirishi esa, soliq to'lovchilarning soliq yuki keskin kamayishiga olib kelgan;

to'rtinchidan, 2023-yilning 1-fevralidan boshlab neft mahsulotlari hamda ishlab chiqariladigan alkogol va tamaki mahsulotlari bo'yicha aksiz solig'i stavkalari 10 foizga indeksatsiya qilinishi, 2023-yilning 1-yanvaridan boshlab oziq-ovqat xom ashysidan rektifikatsiyalangan etil spiriti, e firladegidli fraksiyadan texnik rektifikatsiyalangan etil spiriti va asosiy fraksiyadan etil spiritiga aksiz solig'i stavkasi 5 baravarga oshiriladi va 1 litr uchun 7 450 so'm etib belgilanishi, 2023-yilning 1-yanvaridan boshlab alkogol va tamaki mahsulotlarini import qilishda aksiz solig'i stavkalari 5 foizga pasaytirilishi, 2023-yil 1-yanvardan filtrli, filtrsiz sigaretalar, papiroslar, sigarillalar (sigaritlar), bidi, kretekni import qilishda aksiz solig'i stavkalari 5 % ga pasaytirilishi ishlab chiqarilgan va import qilinadigan alkogollari mahsulotlar uchun aksiz solig'i stavkalarini bosqichma-bosqich tenglashtirilishiga olib kelindi, mahsulot tarkibidagi spirit miqdoridan kelib chiqib soliqqa tortishga o'tish ichimlik tarkibidagi spirit hajmiga mutanosib ravishda soliq solish, shu bilan birga, yangi tartibning joriy etiliishi soliq summasini uning inson salomatligiga zararli ta'siridan kelib chiqib qayta taqsimlash imkonini berdi.

O'zbekistonda 1 litr spirtdagi aksiz ulushi 6,2 % ni tashkil qiladi (1 litr spirtning qiymati 23 905 so'm, aksiz – 1490 so'm). Rossiya Federatsiyasida ushbu ko'rsatkich 54,8%-ni tashkil qiladi, Qozog'istonda – 51,7 %,




Qirg'izistonda 26,3%ni tashkil qiladi. Aksiz solig'i stavkasini 5 baravarga oshirganda 1 litr spirtdagi aksiz ulushi 25 % dan oshmaydi, bu Rossiya va Qozog'istondagiga nisbatan 2 baravar past hisoblanadi, vaholanki 2021-yilda 6,5 mln.dal spirit ishlab chiqarilgan, u bo'yicha 79,8 mlrd.so'm aksiz solig'i to'langan.Ushbu tartib ko'pgina mamlakatlarda, shu jumladan, Rossiya va Qozog'istonda amal qiladiki, stavkalarni indeksatsiya qilish soliqning YalMdagi ulushini saqlab qolishga imkon yaratadi;

beshinchidan, respublikamizda soliq yukini umumiyl taqsimlanishini otimallashtirish hamda uning adolatli o'rnatilishi hamda soliqdan qochishning oldini olish maqsadida 2023-yilning 1-apreldidan boshlab jismoniy shaxslarning hayotini uzoq muddatga sug'ortalash haqini to'lashga yo'naltiriladigan jismoniy shaxslarning daromadlari qismida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar bekor qilindi. Chunki, nazarda tutilgan imtiyoz ijtimoiy xususiyatga ega emas, aksincha, hayot sug'urtasi shartnomalarini tuzish orqali jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini optimallashtirish uchun ishlataladi. Masalan, banklardan birining 5,3 ming nafar xodimidan 3,3 ming nafari yoki jami xodimlarning 62,1 % o'tgan yili 30,2 mlrd.so'm daromadlarini hayotni sug'ortalashga yo'naltirib, soliq majburiyatlar 3,6 mlrd.so'mga optimallashtirishdi. Jismoniy shaxslar tomonidan shartnomalar tuzish va daromadlarni hayotni sug'ortalashga yo'naltirish orqali soliq majburiyatlarini optimallashtirish natijasida 2021-yilda soliq yo'qotishlarining umumiyl miqdori 48,1 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Oltinchidan, 2023-yilda inflyatsiya 10-12 % darajada bo'lishini, mol-mulk solig'ining umumiyl budget daromadlaridagi ulushini saqlab qolish imkonini ta'minlash maqsadida jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning amaldagi stavkalarini inflyatsiya darajasida (o'rtacha 10 foiz) indeksatsiya qilinishi ko'zda tutilgan. Soliq stavkalarini indeksatsiya qilish soliq solinadigan baza mutlaq miqdorda belgilangan ko'chmas mulkning kadastro qiyomi bo'lganligi va 2018-yildan beri indeksatsiya qilinmaganligi sababli amalga oshirildi.

Umumiyl tartibda olsak, davlat budgeti va boshqa maqsadli fondlarga soliq tushumlari (soliq yuki miqdori) hamma vaqt ham soliq to'lovchi zimmasiga davlatning fiskal siyosati orqali yuklanadigan moliyaviy majburiyatlarini ifodalamaydi, vaholanki, boshqa muhim omillar hisobiga ham soliq tushumlari budgetga jalg qilinadiki, ularni soliq to'lovchilarga yuk deb qaraladi, biroq, soliq ma'murchiligidini yaxshilash orqali ham soliq tushumlaringa oshishiga ta'sir qiladi. Buni quyidagi 3-rasmda izohlashga harakat qilamiz.



**3-rasm. Soliq yuki (soliq tushumlari)ga darajasiga fiskal ta'sir jihatidan omillarning guruhanishi<sup>3</sup>**

<sup>3</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.



3-rasmda keltirib o'tilayotgan soliq yuki (soliq tushumlari)ga darajasiga fiskal ta'sir jihatidan omillarning guruhlanishi mazmunan ikki guruhga ajratildiki, soliq siyosatidagi o'zgarishlar, iqtisodiy o'sish va soliq ma'murchiligi bilan bog'liq bo'limgan omillarning ta'sirida bir tomondan davlatning soliq siyosati bilan bog'liq holda o'zgarish xususiyatiga va soliq yukiga ta'siriga ega bo'lsa, ikkinchi guruhga bevosita soliq ma'murchiligini yanada yaxshilash hisobiga soliq tushumlarining miqdoriga ta'sir etuvchi omillarni kiritish mumkin.

Agar, buni aniq rasmiy ma'lumotlar asosida tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi javdal ma'lumotlariga tayananamiz (1-jadval).

**1-jadval. 2022-yilda avvalgi (2021-yilga) nisbatan O'zbekistonda davlat pul fondlariga nisbatan soliq yukining ta'sir etuvchi omillarga to'g'ri keluvchi taqsimlanishi tahlili (mlrd.so'm)**

No	Soliq tushumi (soliq yuki) miqdoriga ta'sir etuvchi omillar	Summasi (ko'payish + kamayish -)
I	Soliq siyosatidagi o'zgarishlar, iqtisodiy o'sish va soliq ma'murchiligi bilan bog'liq bo'limgan omillar	8 847,6
	Iqtisodiy o'sish hisobiga	8 903,3
	Soliq qonunchiligi o'zgarishi va ish haqini oshishi	5 280,2
	Soliq stavkalarini (+indeksatsiya) o'zgarishi	-13 154,1
	Imtiyozlar bekor bo'lishi	2 735,0
	Yangi imtiyozlar berilishi	-2 074,5
	Yangi ro'yxatdan o'tgan subyektlar	735,1
	Soliq ma'murchiligi bilan bog'liq bo'limgan tushumlar (bir martalik to'lovlar)	6 422,5
II	Soliq ma'murchiligi bilan bog'liq omillar	11 570,3
	EXF to'g'ri rasmiylashtirish, qayta ishslash va hisobotlarga tuzatishlar kiritish	3 320,2
	Qo'shimcha soliq obyektlari va er maydonlarni aniqlash	688,7
	Korxonalarning yil boshidagi soliq qarzlarni undirish	2 687,7
	Soliq tekshiruvi natijasi	1 664,8
	Yashirilgan ish o'rinnari va FOTni legallashtirish	1 076,6
	Onlayn NKM, Cashback, joriy etish va to'lov intizomiga rioya etilishi	2 132,3
III	Jami	20 417,8

Ushbu keltirilgan javdal ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, 2021-yilga nisbatan 2022-yildagi soliq tushumlarining soliq yukiga ta'sir etuvchi omillarga to'g'ri keluvchi taqsimlanish tahlili shuni ko'rsatmoqdaki ushbu ikki guruhga kiruvchi omillar umumiy tarzda 2022-yilda 2021-yilga taqqoslaganda budgetga

20 417,8 mlrd.so'mga teng ravishda soliq tushumlari oshgan, bu tushumlarni amaldagi soliq qonunchiligi bo'yicha soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq majburiyatlari doirasida qaraydigan bo'lsak, aslida soliq yuki bu summaga teng bo'lmaydi, sababi omillarning ikkinchi guruhni soliq ma'murchiligining yaxshilanishi hisobiga qo'shimcha tushgan (11 570,3 mlrd.so'm) soliq tushumi tub mohiyati bo'yicha sof soliq yukini ifodalamaydi, chunki, ularning ichidagi avvalgi yillarda soliq to'lovchilar zimmasidagi qonuniy soliq yukining bir qismi sifatida soliq qarzdorligi bo'yicha tushumlar undirilishi aslida 2022-yilgi soliq yukiga qo'shish nazariy va mantiqiy jihatdan to'g'ri bo'lmaydi (bu bo'yicha keyingi bobda mualliflik ilmiy yondashuvlarimizni keltirib o'tamiz).

Bundan tashqari, soliq tushumlari (soliq yukining) kamayishiga soliq turlari bo'yicha soliq stavkalarini (+indeksatsiya) o'zgarishi eng katta ta'sir qilgan, ya'ni, soliq yukining kamayishiga olib kelganligini ko'rish mumkin bo'lib, uning umumiy miqdori -13 154,1 mlrd. so'mni tashkil qilgan, shuningdek, 2022-yilning o'zida soliq to'lovchilarga umumiy soliq imtiyozlarining berilishi hisobiga soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukining -2 074,5 mlrd.so'mga kamaytirgan, shu bilan birlgilidka avvalgi yillarda berilgan soliq imtiyozlarining muddati kelganligi yoki boshqa tartibda to'xtatilganligi hisobiga esa 2 735,0 mlrd.so'mga soliq yuki oshgan, bizning fikrimizcha, bu aslida iqtisodiy jihatdan umumiy soliq yukining oshishini bildirmaydi, chunki, bu imtiyozlar hisobiga tegishli soliq to'lovchilar o'zlarining moliyaviy imkoniyatlarini mustahkamlab olgan bo'ladi yoki imtiyozlarda agar samarali foydalanilgan bo'lsa, mahsulot (xizmat ko'rsatish) hajmining oshirish imkoniyatiga ega bo'lganligi va ushbu imtiyozlarning to'xtatilishi boshqa tomondan ularni boqimandalik kayfiyatidan asrashga ham xizmat qilishi mumkin.



Bizning fikrimizcha, soliq yukini tahlil qilishda davlat budgetiga kelib tushgan soliqli tushumlar bilan aniqlash uslubiy jihatdan to'g'ri bo'lsada, ammo, soliq yukining haqiqiy ichki mohiyati va uning taqsimlanishi nuqtayi nazaridan ham tahlil qilish o'z mohiyatiga egadir. Shu jihatdan olganda davlat budgetiga kelib tushadigan tushumlarni soliq og'irligi jihatdan ikki guruhga bo'lish lozim deb hisoblaymiz.

Birinchisi bu qonunchilik bo'yicha soliq to'lovchilarning zimmasiga yuklatilgan va soliq davri bo'yicha doimo soliq to'lash majburiyati bo'yicha soliq yuki bo'lib, bu soliq og'irligi soliq to'lovchiga doimiy ravishda (agar soliq rejimi o'zgarmasa yoki soliq imtiyozlari berilsa) soliq og'irligi sifatida ularning soliq yukiga aylanib boradi. Ikkinchisi bu qonunchilik bo'yicha ularga soliq majburiyati sifatida yuklanmagan ya'ni, soliq to'lovchilarning iqtisodiy hatti-harakatlari (masalan mahsulotlarni import yoki eksport qilishi) doirasida o'rnatilgan tartibga muvofiq undiriladigan to'lovlar hamda soliq va boshqa qonunchilikka amal qilmasligi oqibatida moliyaviy jarimalar sifatidagi tushumlar bu davlat tomonidan yuklangan soliq yuki, deb qarash kerak emas, balki, soliq to'lovchilarning o'zlarini tomonidan qo'shimcha soliq yuki sifatida baholash mumkin bo'lgan soliq yukidir.

Shuningdek, Qonunga asosan "20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis" dasturiga kiritilgan tadbirkorlarga vaqtinchalik soliq imtiyozlari ham taqdim etilmoqda. Jumladan, Qonun bilan dasturga kirgan tadbirkorlarga yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan er solig'idan imtiyozlar 2025-yil 1-yanvarga qadar pasaytirilgan soliq stavkalarni qo'llanilishi belgilanib, unga ko'ra:

51 tadan 100 tagacha yangi ish o'rni yaratilganda – belgilangan soliq stavkasining 50 foiziga;

101 dan 200 tagacha yangi ish o'rni yaratilganda – belgilangan soliq stavkasining 75 foiziga;

200 dan ortiq yangi ish o'rni yaratilganda – ushbu soliqlarni to'lashdan ozod etilishi nazarda tutilmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida qayd etilgan soliq imtiyozlari dasturda ishtrok etayotgan tadbirkorlarga "Ijtimoiy himoyaning yagona reestri"ga kiritilgan fuqarolar ishma qabul qilinganda va kamida bir yil davomida ularga har oyda mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining bir baravari miqdoridan kam bo'Imagan ish haqi to'langan holda, ularning bandligi ta'minlangandagina hamda ushbu fuqarolar jami ishchilar sonining kamida 20 foizini tashkil etgan taqdirda berilishi Qonunda qayd etilgan. Bundan tashqari, "Hamkorlik shartnomalari"da nazarda tutilgan majburiyatlar tadbirkorlar tomonidan bajarilmagan taqdirda, soliq imtiyozlarining amal qilishi soliq imtiyozlarini qo'llashning butun davri uchun bekor qilinib, ushbu soliqlarni to'lashga doir majburiyatlar tiklanib, soliqlarni to'lash majburiyati yuzaga kelishi ham Qonunda o'z aksini topmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda soliq organlarining ma'lumotlar bazasi 50 dan ortiq vazirlik idoralar bilan integratsiya qilingan bo'lib, Ijtimoiy himoya agentligi bilan ham axborot almashinuvni yo'liga qo'yilgan. "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kiritilgan fuqarolar to'g'risida hamda tadbirkorlik subyektlarining soliq hisobotlaridagi ma'lumotlarga asosan ushbu fuqarolarga ish haqi hisoblanganligi, miqdori va davomiyligini kuzatib borish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, soliq organlari ma'lumotlar bazasida korxonalarini boshqa hududlarga ko'chirish holatlarini kuzatib borish imkoniyati mavjud bo'lib, ushbu imtiyozdan foydalanish uchun tadbirkorlik subyektlari ro'yxatdan o'tgan hududda faoliyat yuritishlari va "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kiritilgan ushbu huddagi fuqarolarni ishma qabul qilish lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, soliq yuki tushunchasi umumiyligi tushuncha sifatida soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq majburiyatlarning qiymatini ifodalaydi, ammo uni tushuntirishda uning tarmoqlar, hududlar, korxonalar, aholi darajasiga qarab, quyi darajadagi soliq yukining xususiyatlarini bilishga intilish orqali umumiyligi soliq yukining mazmunini yanada chuqurroq anglanash va shu tartibda quyi darajadagi soliqqa oid jarayonlardan uning umumiyligi xulosalar chiqarishga intilish masalasini yanada oydinlashtiradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси.– Т.: Faafur Fulom нашриёт уйи, 2020. –640 б.
2. Куликова Татьяна Вениаминовна. Инструменты планирования налоговой нагрузки хозяйствующих субъектов. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Иваново 2004. С. 20.
3. Гофман Анна Павловна. Методика оценки налоговой нагрузки предприятий малого бизнеса в границах "налогового коридора". Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Иваново-2008. С.24.
4. Усовецкий Артем Анатолевич. Методы оптимизации налоговой нагрузки предприятий (на примере налога на добавленную стоимость). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2003. С. 11.
5. Лазутина Дарья Васильевна. Налоговая нагрузка и методы её расчета. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Тюмен – 2005. 25. С.
6. Рогожин Антон Николаевич. Налоговая нагрузка в системе налоговой политики государства и организаций. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Саратов – 2012. с 12.



7. Султанова Соня Махмудовна. GOSPODARKA I INNOWACJE. Volume: 22 | 2022. Корхона молиявий барқарорликка солиқ юкининг таъсири. ISSN: 2545-0573.
8. С.Чепел. Бюджет соҳасини тартибга солишнинг макроиктисодий тенденциялари ва иқтисодиёт учун унинг оқибатлари: эконометрик ёндашув. Ўзбекистон иқтисодиёти журнали, 2006 й, №3.
9. Насимов Р.А. “Солиқ юкини оптималлаштириш йўллари” (phd) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. авторефери. – Тошкент, 2024.

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 7**

© Materiallar ko'chirib bosinganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiylar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

